

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINING RIVOJLANISHIDA ÔYINNING ROLI

Omonova Oydin Mamatqosim qizi

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Maktab va maktabgacha ta'lim bôlimi tasarrufidagi
11-Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877690>

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida o'yin faoliyati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, bolaning idrok jarayoni — ya'ni atrof-muhitdagi narsalarni, ularning xususiyatlarini, shakli, rangi, hajmi, tovushi va boshqa belgilarini anglab yetish qobiliyati — o'yin jarayonida faol rivojlanadi. O'yin bola uchun nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki uning aqliy, hissiy va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. O'yin orqali bola atrofda olamni kuzatadi, narsalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi va ularni o'z tajribasiga tayanib tushunishga harakat qiladi. Masalan, qurilish o'yinlari bolaning fazoviy tasavvurini kengaytirsa, rolli o'yinlar ("shifokor", "o'qituvchi", "do'konchi" va hokazo) uning kuzatuvchanligini, eslab qolish qobiliyatini va tafakkurini faollashtiradi. Bunday o'yinlarda bola kattalar faoliyatini taqlid qilish orqali hayotiy voqealarni o'zicha idrok etadi va ularni qayta yaratadi. Shuningdek, o'yin faoliyati davomida bola bir vaqtning o'zida bir necha analizatorlardan foydalanadi — ko'radi, eshitadi, sezadi, harakat qiladi.

Shu sababli o'yin jarayoni sezgi organlarining uyg'un ishlashiga, diqqatning barqarorlashishiga va idrokning aniqlashishiga yordam beradi. O'yin orqali bolalarda tafakkur, xotira va tasavvur bilan bir qatorda nutq ham rivojlanadi.

Chunki har bir o'yin muloqot va fikr almashishni talab etadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, o'yin faoliyati, idrok, rivojlanish, bilish jarayonlari, tafakkur, xotira, tasavvur, diqqat, sezgi organlari, rolli o'yinlar, tarbiya, aqliy rivojlanish, nutq, kuzatuvchanlik, ijtimoiy tajriba.

Abstract. Play activities play a special role in the formation of the personality of preschool children. In particular, the child's cognitive process - that is, the ability to perceive objects in the environment, their properties, shape, color, size, sound and other signs - actively develops during the game. Play is not only a means of recreation for a child, but also one of the main factors of his mental, emotional and social development. Through play, the child observes the world around him, understands the connections between objects and tries to understand them based on his own experience. For example, while construction games expand the child's spatial imagination, role-playing games ("doctor", "teacher", "shopkeeper", etc.) activate his observation, memory and thinking. In such games, the child perceives life events on his own by imitating the activities of adults and recreates them. Also, during play activities, the child uses several analyzers at the same time - he sees, hears, feels, moves. Therefore, the game process contributes to the harmonious functioning of the sensory organs, the stabilization of attention and the clarification of perception. Through the game, children develop speech along with thinking, memory and imagination. Because each game requires communication and exchange of ideas.

Keywords: preschool children, play activities, perception, development, cognitive processes, thinking, memory, imagination, attention, sensory organs, role-playing games, upbringing, mental development, speech, observation, social experience.

Аннотация. Игровая деятельность играет особую роль в формировании личности дошкольников.

В частности, в игре активно развивается познавательная деятельность ребёнка – способность воспринимать предметы окружающей среды, их свойства, форму, цвет, величину, звук и другие признаки. Игра – это не только способ развлечения ребёнка, но и один из основных факторов его психического, эмоционального и социального развития.

В игре ребёнок наблюдает за окружающим миром, познаёт связи между предметами и пытается понять их, опираясь на собственный опыт. Например, если игры-конструкторы развивают пространственное воображение ребёнка, то ролевые игры («врач», «учитель», «продавец» и т. д.) активизируют его наблюдательность, память и мышление. В таких играх ребёнок самостоятельно воспринимает жизненные события, подражая действиям взрослых и воссоздавая их. Кроме того, в игровой деятельности ребёнок одновременно использует несколько анализаторов – он видит, слышит, осязает, двигается. Таким образом, игровой процесс способствует гармоничному функционированию органов чувств, стабилизации внимания и прояснению восприятия. В игре у детей развивается речь, мышление, память и воображение. Ведь каждая игра предполагает общение и обмен идеями.

Ключевые слова: дошкольники, игровая деятельность, восприятие, развитие, познавательные процессы, мышление, память, воображение, внимание, органы чувств, ролевые игры, воспитание, умственное развитие, речь, наблюдение, социальный опыт.

Kirish

Maktabgacha yosh davri — bolaning shaxs sifatida shakllanishi, idrok, tafakkur, xotira va tasavvurlarining jadal rivojlanadigan davridir. Bu jarayonda o‘yin faoliyati muhim o‘rin tutadi.

O‘yin nafaqat bolaning vaqtini maroqli o‘tkazish vositasi, balki uning aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlaydigan asosiy faoliyat turidir. Ayniqsa, idrokning shakllanishida o‘yinlar orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, predmetlarning shakli, rangi, hajmi va boshqa belgilarini ajrata boshlaydi. O‘yin jarayonida bola o‘z tajribasini boyitadi, kuzatuvchanligi, diqqatini jamlay olish qobiliyati rivojlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘yin faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish bolaning intellektual salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog va psixologlar ta‘kidlashicha, o‘yinga asoslangan ta‘lim uslublari bolalarda bilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, idrokni faol holatga keltiradi hamda keyingi ta‘lim bosqichlariga tayyorlaydi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining rivojlanishida o‘yin faoliyatining o‘rni beqiyos bo‘lib, u bolaning aqliy va ruhiy kamoloti uchun tabiiy hamda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa bola psixologiyasida ko‘plab o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Buni bolaning kognitiv rivojlanishida kuzatish mumkin. Mukammal, sog‘lom sezgilar bilan tug‘ilgan chaqaloqda idrok etishning dastlabki ko‘rinishlari shakllana boshlaydi.

Keyingi rivojlanish bosqichi yoshma-yosh ulg‘aygani sari namoyon bo‘lib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bola idroki sodda ko‘rinishga ega bo‘lib, tevarak-atrofdan sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar va predmetlarni tushunishi, o‘zlashtirishi asosiy faoliyati bo‘lgan o‘yinlar asosida yuzaga keladi. O‘yin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o‘zgarib turadi. O‘yin – maqsadga qaratilgan o‘ylangan jarayondir. O‘yin jarayoni asosida o‘quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko‘p o‘ynasa, maktabda yaxshi o‘qishga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘yin nazariyasining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

- O‘yinning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.

- O'yinning bola hayoti va tarbiyasidagi o'rni.
- O'yinning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

O'yin - buyumli-predmetli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra, yo'nalish va mazmuniga ko'ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yin, bu bola faoliyatining yorqin turi. Unda maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlari natijaning mavjudligi uning o'ziga xosligidir. Xususiyatlarning orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji va qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki ularning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bolalar o'yini orqali ularning motor ko'nikmalari, idroki, hissiy holatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. O'yinning bolaning rivojlanishiga ta'siri keng qamrovli bo'lib, uning harakatlar tizimini rivojlantirishda, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni o'zlashtirishda, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'yin jarayonida bolalar turli vaziyatlarga moslashishni, muammolarni hal qilishni, muloqot qilishni o'rganadilar.

O'yinlarning bolalar idrokini rivojlantirishdagi o'rni haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, uning samarali qo'llanilishi uchun to'g'ri nazariy yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu maqola, aynan, o'yinlarning bolalar motor ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini, o'yin jarayonida bolalar idrokining qanday shakllanishini tahlil qilishga va pedagogik jarayonda o'yinlarni qanday samarali tarzda qo'llash mumkinligini ko'rsatishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yinlarning roli haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar o'yinlarning bolaning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil etadi. O'yinlar orqali bolalar harakat va motor ko'nikmalarini rivojlantirish, hissiy va ijtimoiy malakalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu sohada o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida turli nazariy yondashuvlar mavjud. L.S.Vygotskiy (1983) o'yinlar va bolaning rivojlanishidagi o'rin haqida yozgan. U o'yinning bolaning ijodiy va intellektual rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlagan. Vygotskiyning fikricha, o'yin bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning 152 Xolmamatova Farida Mexmonali qizi dunyoqarashi va faoliyatga yondashuvlarini rivojlantiradi. O'yin jarayonida bolalar turli ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarni o'zlashtiradilar. U o'yinlarni «yangi imkoniyatlar» yaratadigan faoliyat deb atagan va uning yordamida bolalar yangi bilimlarni o'zlashtirishi mumkinligini ko'rsatgan. J.Piaget (1962) o'yin va uning bolalar rivojlanishidagi rolini kognitiv rivojlanish nazariyasi asosida tahlil qilgan. U o'yinning bolaning kognitiv (aqliy) rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganib, o'yinda bolalar o'z dunyoqarashlarini va tajriba asosida bilim olishni rivojlantirayotganini ta'kidlagan. Piagetning fikricha, o'yinlar bolalar uchun o'zlarining aqliy jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular o'yin jarayonida yangiliklarni qabul qilib, o'z tajribalarini jamlaydilar. D.W.Winnicott (1971) o'yin va bolalar psixologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarida, o'yinlarning bolalar uchun emotsional va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatgan. U o'yinni bolaning ichki dunyosini va hissiy holatlarini ifodalashning asosiy vositasi deb atagan. Winnicottning fikriga ko'ra, o'yin bolaning o'zini anglashiga, o'z his-tuyg'ularini boshqarishga va atrof-muhit bilan muloqot qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'yin bolaning o'zlikni anglashida va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishda muhim rol o'ynaydi.

M.E.Thompson (2004) o'yinlar va bolaning motor ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sirini o'rganib, o'yinlarning bolaning jismoniy rivojlanishiga bo'lgan ahamiyatini ko'rsatgan.

U o'yinda bolaning tana harakatlarini rivojlantirish, mushak kuchini oshirish, koordinatsiyani yaxshilash mumkinligini ta'kidlagan. O'yinlar nafaqat motor ko'nikmalarini rivojlantirish, balki bolaning hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi. M.A.Shereshevskaya (1992) o'yinlarning ta'limdagi roli va bolalar rivojlanishiga ta'siri haqida o'z ilmiy ishlarida o'yinlar orqali bolalarning harakatlarini va jismoniy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari o'yinlarning bolalar uchun muhim pedagogik vosita sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi va o'yin jarayonida bolaning rivojlanishiga to'g'ri yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, A.K.Zaporozhets (1990) va A.V.Petrovsky (1987) o'yin va bolalar psixologiyasiga oid tadqiqotlarida, o'yinlarning bolalar rivojlanishidagi o'rni va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.

Ular o'yinning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishga ta'siri haqida so'z yuritganlar va o'yinning bolalarning individual rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini izohlaganlar.

Adabiyotlar tahlili, o'yinlarning bolalar rivojlanishidagi muhim o'rni haqida bir nechta ilmiy yondashuvlarni ko'rsatadi va bu yondashuvlar pedagogik amaliyotga qo'llanilishi zarur.

O'yinlarning jismoniy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga bo'lgan ta'siri ularning pedagogik jarayondagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, 153 borasida nazariy

Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining rivojlanishida o'yinning roli yondashuvlar o'yinlarni ta'limda samarali qo'llash uchun ilmiy metodologik asoslar ishlab chiqilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yinlarning rolini o'rganish metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi o'yinlarning bolalar rivojlanishiga ta'sirini, xususan, motor ko'nikmalar, idrok va ijtimoiy qobiliyatlar bilan bog'liq jihatlarni aniqlash hisoblanib, quyidagi metod va usullar qo'llaniladi. Eng avvalo o'yinlar va bolalar rivojlanishi bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilindi.

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali o'yinlarning pedagogik ahamiyati, ularning bolalar rivojlanishidagi o'rini aniqlashtirildi. Bu jarayonda turli psixologik va pedagogik ilmiy qarashlar, shuningdek, mashhur olimlarning fikrlariga murojaat qilindi. O'yinlarning bolalar rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun bevosita kuzatuv usullari qo'llaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlari kuzatiladi, ularning o'yinda ishtirok etishlari, o'yin davomida faoliyatlari, o'zaro munosabatlari va o'zlarini tutishlari tahlil qilinadi.

Bu metod o'yinlarning bolalarning ijtimoiy, jismoniy va kognitiv rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini aniq ko'rsatadi. Pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan intervyu o'tkazilib, o'yinlarning bolalar rivojlanishiga ta'sirini baholashda ulardan fikrlar olinadi. Shuningdek, so'rovnomalar yordamida o'yinlar va ularning bolalar rivojlanishidagi o'rni haqida qo'shimcha ma'lumotlar yig'iladi. To'plangan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. O'yinlar orqali olingan natijalar, o'yinlarning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'lchashda yordam beradi.

Bu tahlil natijalari asosida o'yinlarning samaradorligini baholash va pedagogik amaliyotga qo'llaniladigan yondashuvlarni takomillashtirish mumkin bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA Ta'lim va tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yinlarning roli tahlil qilindi va o'yinlarning bolalar jismoniy, intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri o'rganildi hamda quyidagi natijalarga erishildi: O'yinlar bolalarning motor ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy o'yinlar, xususan, faol harakatlarni talab qiladigan o'yinlar, bolalar mushak kuchini oshirish, tana koordinatsiyasini yaxshilash va motor malakalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Harakatli o'yinlar orqali bolalar turli jismoniy qobiliyatlarni o'zlashtiradilar va bu ular uchun kelajakda muvaffaqiyatli jismoniy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yinlar bolalarning kognitiv rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'yin jarayonida bolalar turli vazifalarni hal etish, muammolarni echish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'yinlar orqali bolalar o'zlariga mos bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy fikrlash va xotira bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu, o'z navbatida, bolaning aqliy va aqliy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. 154 Xolmamatova Farida Mexmonali qizi O'yinlar bolalarning hissiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'yin jarayonida bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalash, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va ularga javob berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'yinlarning hissiy rivojlanishdagi o'rni ayniqsa ijtimoiy o'yinlar orqali aniq ko'rinadi. Bu o'yinlar bolalar orasida do'stlik, ishonch, o'zaro hurmat va muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi. O'yinlarning pedagogik jarayonda samarali qo'llanishi, bolaning rivojlanishiga to'g'ri yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotda shuni aniqlash mumkinki, o'yinlarning ta'lim jarayoniga qo'llanilishida maqsadga muvofiq yondashuvlar, vaqtni to'g'ri boshqarish va bolalar bilan individual ishlash muhim ahamiyatga ega. O'yinlar pedagogik jarayonda bolalarning yanada faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning ko'nikmalarini mustahkamlash va o'rgatish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Kuzatishlar jarayonida o'yinlarning bolalar rivojlanishida muhim pedagogik vosita sifatida ishlatish mumkinligi tasdiqlandi. O'yinlar nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishini, balki ularning intellektual va hissiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'yinlarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash, bolaning rivojlanishiga to'g'ri yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi.

XULOSA Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar asosida, o'yinlar nafaqat bolalar jismoniy, intellektual va hissiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi, mazkur jarayonda bolalar o'zlariga kerakli ko'nikmalarni o'zlashtirib, dunyoqarashlarini kengaytiradilar, shuningdek, jismoniy rivojlanishlari va aqliy salohiyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida muhim vosita sifatida qo'llanilishi lozim, bu pedagogik jarayonni samarali va qiziqarli qilish, bolalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmatova, Z. (2017). Maktabgacha ta'limda o'yinlar va ularning bolalar rivojlanishidagi o'rni. Toshkent: O'qituvchi.
2. Ahmadjonova, R. (2019). Bolalar psixologiyasi va pedagogikasining nazariy asoslari. Samarqand: SamDU.
3. Yuldashev, M. (2015). Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va o'yinlar. Tashkent: Fan va texnologiya.
4. Tashpulatov, A. (2018). Pedagogik yondashuvlar va bolalar rivojlanishida o'yinlarning roli. Toshkent: Ma'rifat. 155 borasida nazariy Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining rivojlanishida o'yinning roli yondashuvlar
5. Sattorova, Z. (2016). O'yinlar va bolalar ta'limida zamonaviy metodlar. Buxoro: BuxDU.
6. Isroilov, U. (2017). Bolalar ta'limi: nazariy yondashuvlar va amaliyot. Toshkent: Akademnashr.

7. Asimov, A. (2014). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda motor ko'nikmalarining rivojlanishi*. Tashkent: O'qituvchi.
8. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
9. Vygotsky, L. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
10. Erikson, E. (1963). *Childhood and Society*. New York: Norton & Company.
11. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
12. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.
13. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge: Belknap Press.
14. Smirnova, M. (2012). *Pedagogical Approaches to Early Childhood Education and Development*. Moscow: Pedagogika.
15. Vygotsky, L. S. (2004). *The Psychology of Play and Education in Children*. Moscow: Russian Academy of Sciences.
16. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" darslik T.: "Fan va texnologiya", 2012
17. Nishonova Z.T, Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" 2005
18. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.
19. Vygotskiy L.S. *Bolalik psixologiyasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 1991.
20. Elkonin D.B. *O'yin psixologiyasi*. — Moskva: Pedagogika, 1989.
21. Zunnunov A., Jo'raev M. *Maktabgacha pedagogika*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
22. G'aybullayeva N. *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
23. Shoumarov I. *Bolalar idrokining shakllanishida o'yinning o'rni*. — "Ta'lim va tarbiya" jurnali, 2021, №4.